

**Bobur nomidagi Andijon viloyati axborot-kutubxona
markazi**
Axborot-bibliografiya xizmati

Boburiylar sulolasining yorqin vakili

*Jaloliddin Muhammad Akbarshoh tavalludining
480 yilligiga*



*Shoirlar davrasida Shekspir qanday mavqeda tursa,
dunyo shohlari ichida men uchun Akbar ana shunday
mavqeda turadi*

Uilyam Sliman

*Boburshoh va boburiylar shahzodalarining hayot
yo'li, ularning beqiyos bunyodkorlik ishlari, davlat
boshqaruvidagi islohotlari, qolaversa, tarixiy shaxs
sifatidagi qiyofasi xanuz barchamizda katta qiziqish
uyg'otdi*

*Hindistondek buyuk mamlakat tarixida Boburshoh
va uning avlodlari faoliyati salmoqli o'rin egallaydi. Bu
mamlakatda boburiylar sultanati o'rnatilgandan buyon
salkam besh yuz yilga yaqin vaqt o'tgan bo'lsa ham
tarixchilar va maxalliy xalq ularning nomlarini
alohida ehtirom bilan tilga oladi*

Andijon-2022

Boburiylar sultanatining shohi



Tarixda "Buyuk Akbar" nomi bilan mashhur bo'lgan Jaloliddin Muhammad Akbarshoh haqida so'z yuritilganda uning nomi boburiy shahzodalar silsilasida alohida ehtirom ila hurmatlanadi.

Akbar 1542 yilning 15 oktyabrida otasi Humoyun quvg'inda yurgan paytda, Hindistonning Amarkot viloyati xokimi roja Virsalning xonadonida dunyoga keldi. Bu voqeadan ko'r o'tmasdan Humoyun o'z oilasi bilan ukasi xukmron bo'l mish Qandahorga keladi. SHunda ukasi uni ushlab, qatl qilmoqchi ekanligini bilib Eronga ketib qoladi. O'g'li Akbar va xotini ukasinining yonida qoladi, taqdir ota-bolani ajratib yuboradi. Akbar 5 yoshga to'lganidan keyingina otasi bilan birga yashay boshladi. Humoyun o'g'lining yaxshi ma'lumot olishi uchun sharoit yaratib berdi, biroq yosh Akbarni savodxonlikdan ko'ra otda chopish, ov qilish va shunga o'xshash jismoniy o'yinlar ko'proq qiziqtirar edi.

Otasining tasodifiy vafotidan so'ng uning shaxsiy qo'riqchisi bo'lgan Bayramxonning katta yordami tufayli 1556 yilning 14 fevralida Panjob yaqinidagi Kalonavr shahrida Hindistondagi boburiylar sultanatining shohi deb e'lon qilinadi.

Taxtga chiqqandan keyingi dastlabki davr ancha qiyin kechdi. Ana shunday og'ir vaziyatda 14 yoshli akbar Bayramxonni o'ziga vazir etib tayinlab, unga "Xoni xonon" unvonini berdi. SHundan keyingi to'rt yillik davr asosan davlatni Bayramxon idora qilgan davr bo'ldi.

Akbarshoh xukmronligi davrida hindlar uchun qulay imkoniyatlar yaratilibgina qolmay, ularning diniy qarashlari va urf-odatlaridagi g'ayriinsoniy odatlariga rioya qilishga ham chek qo'yildi. Jumladan, voyaga yetmagan bolalarni uylantirish va turmushga berish man etildi.

Xukmdor musulmonlar va mahalliy raiyat vakillari bo'l mish hindlar o'rtasida murosasozlik qilish, o'zaro hurmat munosabatlarini tiklash va

tinch-totuv yashashlarini ta'minlash maqsadida amalgal oshirilgan bu tadbir-choralar Akbarshoh sultanatining tobora kengayishi va har tomonlama mustahkamlanishi hamda uzoq yillar gullab-yashnashini ta'minlovchi omillar bo'ldi.

Akbarshoh // Satimov, G'ofurjon Boburiyzodalar [Matn]: tarixiy-ma'rifiy roman / G'. Satimov. - Toshkent: "Sharq" nashriyot-matbaa aktsiyadorlik kompaniyasi bosh tahriri, 2006. – B. 30-44

Akbarning davlat siyosati

Hindistonni idora etishda Akbar yangi bir siyosatni qo'lladiki, undan ilgarigi uncha-muncha hukmdor bunday yo'l tutmagandi. Uning siyosati Hindiston printsipiga asoslangan edi. Akbarning xukmi insoniylik asosida olib borilib, odamlarni millatiga, diniga qarab ajratmadi. Buning natijasida xalqning muhabbatini qozondi. Buni ko'rgan hindular va rojalar unga ixlos bilan itoat qilishdi, chunki bular yagona vatan o'g'lonlarini bir-biridan ajratmay, birdek ko'rish shioriga suyanib ish qilayotgan hukmdorni endi ko'rishgandi.

Akbarning bu siyosati, umuman musulmon xukmdorlarining Hindistondagi siyosatiga nisbatan inqilob edi. Jumladan, soliq to'lashda musulmonlar va hinduslar o'rtasidagi har qanday farqni yo'q qildi. Shuningdek dehqonlarning yerlarini ularga mulk sifatida bog'lab qo'ydi, ilgarigi qarzlarini kechib yubordi. Zamonaga mos keladigan qonun-qoidalar ishlab chiqdi. O'z hokimlariga esa kuyidagilarni buyurdi:



- qo'l ostidagilarning holidan doimo xabardor bo'lish;*
- kishilarga xushmuomalada bo'lib, kambag'allarga yordam berish;*
- hadyalar qabul qilmaslik;*

- boshqa din vakillariga e'tiroz qilmaslik, zarur bo'lsa yo'l ko'rsatish;
- islomga jabr yo'li bilan kiritmaslik va h.k.

Akbar davrida hind, fors, turk va arab tillaridan tashkil topgan urdu tili hayotga qadam qo'ydi. Turk tili podshoh ahlining tili, fors tili davlat tili, arab tili esa islam dinining tili bo'lib qoldi.

Akbar o'z lashkariga, uning tashkiliy masalalariga katta e'tibor bergan. Hattoki, har bir zambarakka nom berib, ularning tarixi yozib borilgan.

Akbar davrining oxirlariga kelib, 1009 yillarda Hind-ingлиз shirkati tashkil topgan. Uning rahbarlari Akbar bilan uchrashib, ba'zi savdo-sotiq imtiyozlarini olishgan



Akbar siyosiy ishlaridan tashqari o'zining diniy aqidasi bilan ham mashhur bo'lgan. Hindistonda Akbar yuritgan siyosati umumillyi siyosat bo'lishini xohlagan. Boshqacha qilib aytganda, dinka tayanmagan, dindan tashqari xukm bo'lishini istardi. U davlatidagi hamma dinlarning aralashmasidan tashkil topgan yangi bir din ixtiro qilmoqchi bo'ldi. Shundayn keyin Akbar yangi din asoschisi bo'lib, muqaddaslik sharafiga tuyassar bo'lmoqchi edi.

Tarixiy kitoblarda zikr etilishicha, faoliyatining boshlarida u ilm va din ahlini o'ziga ko'p yaqinlashtirgan. Hattoki o'zi shayx Abdunnabi Ahmad al-Ganguxiyning uyiga borib, hadislaridan eshitib qaytgan.

Akbarshoh xumronligi davrida juda ko'p ilmlar sohasida shunchalik ko'p kitoblar yozilib, tarjimalar qilinganki, Akbarning qilgan juda keng ilmiy va madaniy harakatlari odamni hayratga soladi.

Akbarning davlat siyosati // Nuritdinov, M. Boburiylar sulolasi / M. Nuritdinov.- Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi, 1994. – B. 17-21.

Me'morchilik san'ati

Boburshoh tabiatan shinam bog'lar yaratish, ko'r kam binolar bunyod etish san'atining muxlisi bo'lgan edi. Akbarshohning ancha turg'un va uzoq vaqt davom etgan xukmdorlik davrida bu o'lkada me'morchilikning nodir namunalari bunyod etildi. Akbarshoh bobosi singari Hindiston yerlaridan seskanib o'tirmadi, hind va xorijiy me'morchilik san'ati namunalari qorishmasi sifatida paydo bo'lgan bunyodkorlik ishlarini keng qo'lama amalga oshirdi. Akbarshoh davrida bunyod etilgan me'moriy obidalarning birinchisi Humoyunning bevasi Hoji begin tomonidan Dehlida marhum eri xotirasiga qurdirlig'an maqbaradir.

Otasining maqbarasi 1570 yilda bitgach, Akbarshoh uni borib ko'radi. Badouniyning guvohlik berishicha, ushbu maqbara to'qqiz yilda qurib bitkazilgan va uning qurilishida Hoji begin va usta Mirzo G'iyosning xizmatlari katta bo'lgan. Humoyunshoh maqbarasining jilokorligi keyinroq, Akbarshohning nabirasi Shoh Jahan tengsiz go'zal Toj Mahalni qurdirguncha hammani lol qoldirib, kishi diqqatini o'ziga jalyu qilib kelgan.


Har sohada bo'lganidek, me'morchilik borasida ham Akbarshohning o'z qarashlari va mulohazalari bor edi. Uning bunyodkorlik ishlari namunalarini ikki sohada, ya'ni sultanatda strategik jihatdan harbiy-siyosiy ahamiyatga molik bo'lgan qal'alar qurishda va Sehri shahrida bunyod etilgan yangi poytaxt misolida ko'rish mumkin.

Akbarshoh xukmronligi davrida qurilgan dastlabki imoratlar Agra va ikkinchi poytaxt hisoblangan Lohur shahrida qad ko'targan qal'a-saroylardir.


Akbarshohning qurilish ishlarini tezkorlik bilan olib borishidan Monserat hayratlanib yozadi: "Toshlarga ishlov berishda chiqadigan shovqin-suronga qaramay, Akbarshoh har bir toshning o'z o'rnida bo'lishiga e'tibor berdi va zarur bo'lganda



ularning har biriga qay yo'sinda sayqal berilishini shaxan o'zi kuzatib borardi. Jaloliddin (Akbar) bu ishlarga shu qadar berilib ketardiki, ba'zan ustalar bilan birga o'zi ham toshlarga sayqal berishga kirishib ketardi. Akbarshoh davrida bunyod etilgan binolar hashamatli, ularga naqshlar va bo'yoqlar bilan bezak berilgan."



davrige to'g'ri keladi. Eng ko'p va katta islohot o'tkazgan ham Akbar hisoblanadi. Akbar Xumoyunning o'g'li, Boburning nabirasi edi.



Me'morchilik san'ati // S. M.

Berk Akbarshoh-boburiylarning eng buyugi / tarjimon G'. Sotimov. - Toshkent: "Mumtoz So'z", 2009. - B. 235-243.

Jaloliddin Muhammad Akbarshoh

Boburiylar sulolasining 332 yillik tarixidan yarim asri Jaloliddin Muhammad Akbarshoh xukmronligi

davrige to'g'ri keladi. Eng ko'p va katta islohot o'tkazgan ham Akbar hisoblanadi. Akbar Xumoyunning o'g'li, Boburning nabirasi edi.


Akbar xukmronligi davrida deyarli butun Hindiston yarim oroli Boburiylar sulolasini izmida bo'lgan. Mamlakat xududi shimolda tibet chegaralaridan janubda Gadavoriy daryosigacha, g'arbda Gujorotdan, sharqda Bengal qo'ltig'igacha cho'zilgan. O'z xukmronliging so'nggi 20 yili mobaynida Akbar Kashmirni bo'yinsundirdi. Akbarshoh ajdodlari siyosatini davom ettirib, markaziy davlat boshqaruvinini mustahkamlashga va takomillashtirishga alohida, e'tibor berdi. U 28 yoshiga qadar farzand ko'rmagan, shundan so'ng Shayx salimga ixlosmand bo'lgach, o'g'il ko'radi va uning nomini "Mirza Salim" deb qo'yadi. Akbar o'tgan

ajdodlariga, o'z qarindoshlariga juda ham sodiq bo'lgan. Bunga misol qilib, uning ammasi Gulbadan Begimga ko'rsatgan hurmat va ehtiromini eslash mumkin.

Buyuk Akbarshoh shaxsiyati bilan yuqorida yaqindan tanishib chiqdik. Akbarshoh ham Bobur qurgan buyuk davlatni mustahkamladi va albatta unga yana bir poydevor qurdi.

Jaloliddin Muhammad Akbarshoh // Faxriddin Nosirjonov Ta'zim. - Toshkent: "Kafolat print compani", 2021. - B. 17-18.

Boburiylar davlatining Hindiston tarixidagi roli



Boburning vasiyatiga ko'ra, uning katta o'g'li Xumoyun taxtga o'tirib mamlakatni 1540 yilgacha boshqardi. Biroq, jangu jadallar natijasida 1540 yil Hindistondagi afg'onlarning Sur qabilasi sardori Shershoh taxtni egallab Humoyunni mamlakatdan quvib yubordi. Humoyun Dehlini qayta egallagach, ko'p o'tmay vafot etadi. Bobosi Zahiriddin Muhammad Bobur kabi 14 yoshli Akbar taxtga o'tiradi va ellik yil davomida, ya'ni 1556 yildan to 1605 yilgacha Hindistonnei boshqaradi.

Akbar ham harbiy, ham diplomatik usullar yordamida barcha muslimon beklari va hind rojalarini o'ziga bo'ysundirishga erishadi. Boburiylar sulolasi davrida Hindistonda Sharq rasm-rusumlari, shariat, Qur'oni Karim, hadislar diplomatiyaning asosini tashkil etar edi. Hatto, Akbar bir safar o'z qo'shini bilan bir shaharni qamal qilganida, mulla shahar aholisining jonini asrab qolish maqsadida Qur'oni qo'lida ushlab shahardan chiqib keladi. Akbarshoh "Muqaddas kitob" tufayli shaharliklar g'archi uning dushmani bo'lsa-da, ularning gunohidan o'tib, jonlarini saqlab qoladi.

XVI asr oxirlarida Movarounnahr, Hindiston va Eronda kuchli feodal davlatlar tashkil topadi. Hindistonda boburiylar sulolasining eng zabardasti buyuk Akbar sultanat egasi bo'lganda Movarounnahrda shayboniyalar sulolasining so'nggi tadbirkor namoyandasi Abdulla II xokimiyatni o'z qo'liga oladi.

Akbar taxtni egallaganlaridan keyin o'z davlatlarini mustahkamlashga mustaqil va yarim mustaqil xonliklarni bo'ysundirishga, yangidan-yangi o'lkalarni bosib olishga kirishadilar.

U Hindiston aholisini birdamlikka, totuv yashashga, tenglik va birodarlikka chorlab, butun umri davomida Boburiylar davlatini kengaytirishga o'z faoliyatini bag'ishladi. Ma'rifatli, tadbirkor, dono, uzoqni o'ylab ish qiladigan odil podshoh sifatida poytaxt Agra, Fotihpur Sekri, Lohur, Dehli va boshqa shaharlarda saroylar, me'moriy inshootlar va bog'lar barpo etdi. Ilm-fan, san'at va dehqonchilikni rivojlantirdi. Asosiy yo'llarni ta'mirlash va xavfsizlikni ta'minlash, karvonsaroylar qurish hamda dengiz yo'llari orqali Yevropa mamlakatlari bilan savdo-sotq ishlari olib borish, xaj safariga borishni qulaylashtirishga katta e'tibor qaratdi.

Xulosa qilib aytganda, Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan markazlashgan davlatga asos solinishi va xalqaro munosabatlarning qaror topishi, boburiylarning Hindistonda xukmdorlik qilgan davrida o'ziga xos diplomatik an'analar va xorijiy mamlakatlar bilan aloqalar qilishning sharqona maktabi vujudga keldi.

Mirzaev, G'. Boburiylar davlatining Hindiston tarixidagi roli / G'ulom Mirzaev // Bobur va dunyo.- 2022.-№2.- B. 58-61.

Boburiylar sulolasining yorqin vakili [Jaloliddin Muhammad Akbarshoh haqida]: o'quv-reja / Dilorom Solieva. - Andijon, 2022. - 9 b.